

**MAMLAKATIMIZ HUDUDLARDA YER QA'RIDAN
FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ BO'YICHA QO'SHIMCHA
MANBALARNI JALB QILISH HAMDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich

Annotasiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda yer qa'ridan uchun nedra solig'idan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini yanada oshirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari soliqqa tortish maqsadida tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan guruhlash va ularning xususiyatlarini ko'rsatib berish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini nazariy tahlil qilish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishning xorij tjribasini qiyosiy jiahtadan tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini yortib berish.

Kalit so'zlar: resurs solig'i, nedra solig'i, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. konlar, xorijiy investorlar.

Kirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish orqali yuqori darajada qo'shimcha qiymat yaratishdan iborat. Respublikamiz soliq tizimida tabiy boyliklardan samarali foydalanish maqsadlarida foydalanilgan nedra soliq ob'yeti sifatida belgilagan.

Mazkur yunalishda byudjetga qo'shimcha manbalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Noruda foydali qazilmalarni hisobini yuritish va soliqqa tortishni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida byudjetga joriy yilning I yarmida 418 mlrd.so'm soliqlar tushirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 162 foizga o'sdi. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish davomida 15 tardagi noruda foydali qazilmalarga soliqning eng kam miqdori joriy qilindi. Ushbu maxsulotlar bo'yicha kavlab olish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 mln.m³ga hisoblangan soliq 173,1 mlrd.so'mga ortdi. Maxsulotlar hajmi bo'yicha tahlil qilinganda *sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh* 4,5 mln.m³ga, *qum-shag'al aralashmasi* 2,3 mln.m³ga o'sdi. Noruda foydali qazilmalarni qazib oluvchilarning soliq qonunchiligiga rioya qilinishi doimiy nazoratga olingan bo'lsada, amalda qazilmalar hajmini hisobotlarda kamaytirib ko'rsatish, litsenziya shartlariga amal qilmaslik (*soliq stavkasini noto'g'ri qo'llash*) va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlarni soliq hisobotlarida aks ettirmaslik orqali soliqdan qochishning turli sxemalari qo'llanilmoqda. Joriy yilda o'tkazilgan tahlilda 2,7 mln.m³ qazilma hajmini hisobotlarda kamaytirib ko'rsatgan va litsenziya shartlariga amal qilmagan korxonalariga 123,0 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Xususan, daryo o'zanidan qazib olingan qazilma hajmini soliq hisobotida 717,6 ming kubga kamaytirilishi hisobiga 5,3 mlrd.so'm soliq hisoblanmasdan qolganligi aniqlangan.

Misol uchun: Toshkent viloyatidagi Sergeli tosh jamiyati Chirchiq daryosining Chortoq MFY hududidan oqib o'tuvchi qismidan 2020 yilda 178,4 ming metr³ qum-shag'al materiallarini qazib olib, 1,3 mlrd so'm yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lamagan.

Haqiqatda qazib olingan va davlat zaxirasidan kamaytirilgan hajmlar Davlat geologiya fondi ma'lumotlari asosida (5-gr hisobot) o'rganilganda davlat zaxirasidan kamaytirilgan 4,7 mln.kub hajm soliq hisobotida 2,0 mln.kubga kam ko'rsatilishi natijasida 15,9 mlrd.so'm soliq hisoblanmasdan qolgan.

Misol uchun: Samarqand viloyatidagi "Mironqul karbonat kalsiyum" jamiyati 2020 yilda sement homashyosini hajmini 5-gr hisobotiga nisbatan 37,8 ming metr³ga kamaytirib ko'rsatib, 1,7 mlrd.so'm soliq to'lamaganligi aniqlangan va 2020 yil 10 aprelda ushbu summaga qayta hisobot olingan.

Qazib olish huquqi uchun berilgan litsenziyaning foydalanish shartlari o'rganilganda 136 ta korxonada haqiqatda qazib olingan foydali qazilma uchun belgilangan soliq stavkasini noto'g'ri qo'llab, 15,9 mlrd.so'm soliq to'lamaganligi aniqlangan.

Misol uchun: Curxondaryo viloyatidagi "To'palang hpd platinum" jamiyati 2020 yilda haqiqatda qazib olingan 103,2 ming metr³ qum-shag'al aralashmasi uchun belgilangan soliq stavkasini hisobotlarda noto'g'ri qo'llab, 633,0 mln.so'm soliq to'lamaganligi aniqlangan va 2020 yil 7 aprelda ushbu summaga qayta hisobot olingan.

Shuningdek, Toshkent viloyatida mart oyida o'tkazilgan tadbirlar natijasida 915 ta holatda 84 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblandi.

Misol uchun: Toshkent viloyatidagi "Building innovation" jamiyati 2020 yilda g'isht-cherapitsa homashyosi hajmini 5-gr hisobotiga nisbatan 87,9 ming metr³ga kamaytirib ko'rsatib, 615,4 mln.so'm soliq to'lamagan.

II. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda soliq nazoratida IT texnologiyalarni qo'llash yo'nalishlarida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son qaroriga asosan Samarqand viloyatida noruda foydali qazilmalarni konlardan olib chiqishni hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy qilindi. Tizimning dastlabki ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlilda noruda foydali qazilmalarning soliq hisobotlarida aks ettirilgan hajmi haqiqatda tashilgan hajmiga nisbatan 712,8 ming m³ga kam ekanligi ma'lum bo'ldi. Noruda foydali qazilmalar konlarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 avgustdagi 483-son qarori qabul qilindi. Qaror bilan kar'erdan olib

chiqilayotgan noruda foydali qazilmalarning haqiqiy hajmini aniqlashda inson omilini cheklash bo'yicha tizim joriy qilindi.

Xulosa va taklif.

Mavzu bo'yicha o'rganishlar asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Suv iste'molchilari tomonidan foydalanilgan suv hajmi to'g'risida iste'molchilar kesimidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida suv inshootlariga ilg'or jahon standartlari asosida ishlovchi suvni o'lchash va boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni optimal undirish mexanizmlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo'llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021

Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (data obraшeniya: 17.01.2023)

Venera, K., & Firdovuskhon, Y. (2021). Technology of Formation of Skills of Folk Crafts and Home Work at Technology Lessons. *JournalNX*, 7(03), 227-230.